

# “RUHIYAT TASVIRLARI” “O‘ZBEKISTON SAN!”



Necha yillar qaddi dol elim,  
Orzularga ko‘mding kuzingni.  
Bugun borsan, ey ona tilim,  
Dunyolarga aytding so‘zingni!  
G‘ururimsan qonimda Vatan,  
Tuprog‘ingga kaftim tutarman.  
Sevging bilan yashar butun tan,  
Seni o‘ylab baxtli o‘tarman!  
Oro yashnar bag‘ringda gullar,  
Sabolarda shivirlar shahding.  
Maqsadlarga to‘lganda yo‘llar,  
Osmonga teng, eng buyuk ahding!  
Samarqandga borsam agar,

Ulug'bekni bilib qaytaman.  
O'sha baland Rasadxonani,  
Yulduzlarni ko'rib qaytaman.  
Ibn Sino yozgan kitoblar,  
Shifo bo'ldi ohi-dardlarga.  
Temurda bor metin shitoblar,  
Bayrog'ingni berding mardlarga!  
Navoiyning "Xamsa"si meros,  
Bobur bitgan g'azallar buyuk.  
Avlod kelsin bobolarga xos,  
Har bir go'dak joningdek suyak!  
Vatan senda tole va qalqon,  
Nafas kabi ko'ksingda faxr.  
Yana yuksal, yashna har zamon,  
Kulib boqsin doim shu taqdir.  
Ajdodlarning ruhi madadkor,  
Osoyishta jonimga jonsan.  
Izhorlarim aytayin takror,  
Sen yagona O'zbekistonsan!  
Sen tengi yo'q O'zbekistonsan!!!

Dostonbek RAHMATULLAYEV